

VII. ISTE'MOL BOZORI CHAKANA SAVDO

Tovar aylanmasi

2024- yilning yanvar-dekabrida chakana tovar aylanmasi 26 071,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109,0 foizni tashkil etdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Jami	26 071,1	109,0	100,0
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	23 297,5	109,0	89,4
undan fuqarolarning xususiy mulki	2 773,6	109,0	10,6













Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 9 497,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,6 foizni tashkil etgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 13 800,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,9 foizga o'sdi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Chakana tovar aylanmasi	26 071,1	109,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	9 497,0	110,6	36,5
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	13 800,5	107,9	52,9
<i>shundan:</i> uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	2 773,6	109,0	10,6

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>735,5 mlrd. so'm</p>  <p>54,0 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>220,6 mlrd. so'm</p>  <p>16,2 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>66,7 mlrd. so'm</p>  <p>4,9 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>91,2 mlrd. so'm</p>  <p>6,7 %</p>	<p>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>38,1 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>39,5 mlrd. so'm</p>  <p>2,9 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>65,4 mlrd. so'm</p>  <p>4,8 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>42,2 mlrd. so'm</p>  <p>3,1 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>13,6 mlrd. so'm</p>  <p>1,0 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>30,0 mlrd. so'm</p>  <p>2,2 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>2,7 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>16,3 mlrd. so'm</p>  <p>1,2 %</p>

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 364,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (735,5 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.


Uyushmagan savdo tovar aylanmasi: chorva (parranda) bozorlari

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 411,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 971,3 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 378,4 mlrd. so'mni, otlar 55,1 mlrd. so'mni, parrandalar 7,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan:




Ulgurji savdo tovar aylanmasi

Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 8 844,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 110,0 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 1 007,9 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 97,3 %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 7 836,6 mlrd. so'mni tashkil etib 111,8 % ga o'sdi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 17 645,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 109,3 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida aholi jon boshiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,6 foiz bo'lib, 7 242,0 ming so'mni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 26 071,1 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 109,0 foizga oʻsdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 146,1 mlrd. soʻmni (oʻsish surʻati 97,3 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 9 497,0 mlrd. soʻmni (oʻsish surʻati 110,6 %), jismoniy shaxslarning tovar aylanmasi 16 574,1 mlrd. soʻmni (oʻsish surʻati 108,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 773,6 mlrd. soʻmni (oʻsish surʻati 109,0 %) tashkil etdi.

Yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. soʻm)




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushiga ega bo‘lgan Qarshi shahar (viloyat bo‘yicha jami tovar aylanmasi hajmidagi ulushi (25,9 %), Koson (8,0 %), Chiroqchi tumanlari (7,7 %) va Shahrisabz shahri chakana savdo tovar aylanmasining o‘shishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 1 146,1 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 97,3 foizni tashkil etdi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,4 % ulushiga to‘g‘ri keladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 24 925,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,6 foizni tashkil etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 95,6 foizga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi,
(jamiga nisbatan foiz hisobida)



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	<i>yirik korxonalar (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>	<i>kichik tadbirkorlik (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
Qashqadaryo viloyati	1 146,0	97,3	24 925,0	109,6
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	456,9	92,5	6 289,4	113,7
Shahrisabz sh.	64,5	2,6 m.	1 900,9	106,9
<i>tumanlar:</i>				
G‘uzor	47,9	178,0	980,2	108,0
Dehqonobod	7,9	115,0	767,1	104,9
Qamashi	16,0	103,9	1 746,9	107,0
Qarshi	13,8	15,4	1 113,6	117,4
Koson	125,1	123,0	1 972,7	108,3
Kitob	24,9	146,9	1 287,8	108,5
Mirishkor	6,4	105,0	867,6	108,1
Muborak	3,1	6,3	682,1	116,7
Nishon	7,3	101,6	940,5	109,0
Kasbi	8,9	25,7	913,4	108,0
Ko‘kdala	53,3	156,9	742,7	106,1
Chiroqchi	47,9	103,9	1 957,7	108,1
Shahrisabz	139,0	146,2	747,9	107,3
Yakkabog‘	14,7	116,6	1 224,3	104,6

2024- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining o‘shish sur‘ati bo‘yicha Qarshi tumani (117,4 %), Muborak tumani (116,7 %), Qarshi shahri (113,7 %), Nishon (109,0 %), Kitob (108,5 %) va Koson tumanlarida (108,3 %) yuqori darajada bo‘ldi. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,4 foizni tashkil etib, yirik korxonalarining eng katta ulushi Shahrisabz tumanida (15,7 %) Qarshi shahri (6,8 %), Ko‘kdala (6,7 %) tumanlarida kuzatildi.